https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

UO‘T: 634.511+664.31/.36+665.324.32

Sunnatillayeva Mavluda Qudrat qizi
Qarshi davlat texnika universiteti magistranti
ORCID ID: 0009-0006-4013-0290

YUNON YONG‘OG‘IDAN MOY AJRATIB OLISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Annotatsiya. Ushbu maqolada grek yong‘og‘i mevasidan ekologik sof moy olish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligi bevosita yoritilgan. Yong‘oq daraxti (Juglans regia L.) nafaqat oziq-ovqat, tibbiyot sanoatida, balki xalq xo‘jaligining boshqa sohalarida ham juda qimmatli xom ashyo beruvchi daraxt hisoblanadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda ushbu o‘simlik va uning qimmatli mahsulotlar beradigan qismlarini nafaqat o‘rganish, balki mana shu qismlaridan qayta ishlash mahsulotlari ajratib olish jahon miqyosidagi dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. yong‘oq mag‘zi, yong‘oq moyi, qayta ishlash texnologiyasi, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В данной статье непосредственно рассматривается экономическая эффективность технологии получения экологически чистого масла из грецких орехов. Орех грецкий (Juglans regia L.) — дерево, дающее ценнейшее сырье не только для пищевой и медицинской промышленности, но и для других отраслей народного хозяйства. Вот почему не только изучение этого растения и его ценных частей, но и извлечение из них продуктов переработки является в настоящее время одной из самых актуальных мировых проблем.

Ключевые слова: Грецкий орех, Греция, страны Европы, Индия, Ферганская долина, Александр Македонский, технология возделывания грецкого ореха.

Abstract. This article directly examines the economic efficiency of the

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

technology for obtaining environmentally friendly oil from walnuts. Walnut (Juglans regia L.) is a tree that provides valuable raw materials not only for the food and medical industries, but also for other sectors of the national economy. That is why not only the study of this plant and its valuable parts, but also the extraction of processed products from them is currently one of the most pressing global problems.

Key words: walnut kernels, walnut oil, processing technology, economic efficiency.

Kirish. Dunyoda global oziq-ovqat yetishmovchiligi xavfi yuzaga kelayotgan bugungi vaziyatda aholini o‘simlik mahsulotlari bilan ta’minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning qulay hududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo‘jalik ekinlari yetishtiriladi. Shu jumladan, moyli o‘simliklardan biri bo‘lgan *grek yong‘og‘i* – insonlarni nafaqat oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda, balki tibbiyotda insonlarni turli kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi [2].

Shu sababli grek yong‘og‘ini ko‘paytirishni nafaqat butun jahon miqyosida, balki O‘zbekiston Respublikasi hududida ham uni ko‘paytirish, mevasidan har xil mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha bir qancha qaror va farmonlar tasdiqlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 01.06.2017 yildagi PQ-3025-sonli qarori shular jumlasidandir [1].

Yong'oq yog'i "Sharq zaytun moyi" sifatida tanilgan va u zaytun moyi bilan bir qatorda iste'molchilarning sevimli moylaridan biri hisoblanadi. Organik yong‘oq moyi yaxshiroq sifatga ega va asosan chaqaloqlar uchun iste'mol qilinadigan yog' uchun ishlatiladi. Yong'oq yog'i yangi va sof, ozuqaga boy, ta'mi yengil, hazm qilish va so'rish oson. Bu bolalar rivojlanishi, ayollarning homiladorligi va tug'ruqdan keyingi tiklanish uchun, sog'lom ovqatlanish uchun

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

iste'mol qilinadigan yog'dir. Ushbu mahsulotning ozuqaviy tarkibi: to'yinmagan yog'li kislota miqdori 92 foizdan ortiq yoki unga teng, linoleik kislota Ō - 6 56% dan katta yoki teng, linolenik kislota Ō - 3 14 foizdan katta yoki teng , tabiiy VA, VD va boshqa oziq moddalarga boy. Kislotaligi 0.5 dan kam yoki unga teng, ta'mi yengil, o'ziga xos hidsiz, toza xom ta'm, ayniqsa, chaqaloqning nozik oshqozoni uchun mos keladi [4].

Tadqiqot materiallari va usuli. Qarshi davlat texnika universiteti “Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi” kafedrasi laboratoriyasida talabalar va magistrantlar ishtirokida 2 xil navli yong‘oq mevalari tarozida tortib olinib, qattiq po‘stidan ajratib olindi va yana tarozida o‘lchab olindi. So‘ngra NF100 markali maslopress apparatida sovuq presslash usulida yong‘oq mag‘zidan ekologik sof moy ajratib olindi. Ajratib olingan moy va pulpasi yana bir marta tarozida tortib olinib, olingan ma’lumotlar asosida iqtisodiy samaradorlik hisoblab chiqildi. Iqtisodiy samaradorlik tovarlilik darajasini aniqlash uslubiyati yordamida ishlab chiqildi, bunda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi va sotish rejasi hisobga olingan [3].

Natijalar va ularning tahlili. Yong‘oqdan moy ajratib olishning iqtisodiy samaradorligi hisoblanganda mahsulot tannarxi asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Uskunalarning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qarab, ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi, ijtimoiy soliq, xom ashyo va materiallarni sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar, boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy vositalarning amortizatsiya xarajatlari bevosita hisoblab chiqiladi. Masalan, 40 mln l moy ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi 204 mln so‘m, ijtimoiy soliq 51 mln so‘m, xom ashyo va materiallarni sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar 3 mlrd 100 mln so‘m, boshqa ishlab chiqarish xarajatlari 90 mln so‘m, asosiy vositalarning amortizatsiya xarajatlari 22 mln 365 ming so‘mni tashkil etganligi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval

Grek yong‘og‘idan moy ajratib olishning boshlang‘ich iqtisodiy samaradorligi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

(mahsulot tannarxi)

№	Xarajatlar nomi	Summasi *(ming so‘mda)*
1	Ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi	204000
2	Ijtimoiy soliq	51000
3	Xom ashyo va materiallarni sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar	3100000
4	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	90000
5	Asosiy vositalarning amortizatsiya xarajatlari	22395
	Jami	3467395
	Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi	
1-mah-sulot	(Yong'oq moyi)ning ishlab chiqarish hajmi (l) *	40000
	(Yong'oq moyi)ning tannarxi 1litr uchun*	86,685
2-mah-sulot	(Yong'oq kunjarasi)ning ishlab chiqarish hajmi (kg) *	40000
	(Yong'oq kunjarasi)ning tannarxi 1 kg uchun*	10,000

** har bir mahsulot alohida ko‘rsatiladi*

Mahsulotlarni ishlab chiqarish tannarxi ularni navlariga qarab turlicha summani tashkil etsada, o‘rtacha 1 litr yong‘oq moyining tannarxi 86685 so‘mni tashkil etmoqda. Moy ajratib olingandan qolgan yong‘oq kunjarasining 1 kilogrammi tannarxi 10000 so‘mni tashkil etganligi kuzatildi.

2-jadval

Grek yong‘og‘idan moy ajratib olishning boshlang‘ich iqtisodiy samaradorligi (mahsulotni sotish rejasi)

№	Mahsulotlar nomi	O‘lchov birligi	Miqdori	Narxi *(ming so‘mda)*	Summasi *(ming so‘mda)*
1	Yong'oq moyi	l	40000	120000	4800000000
2	Yong'oq kunjarasi	kg	40000	10000	400000000
	Jami:		**80000**	**130000**	**5 200 000 000**

Kelib chiqqan xarajatlar hisobga olinganda mahsulot tannarxi oshib bordi. Jumladan, ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra 40000 l moy ishlab chiqarilganda kelib

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

chiqqan xarajatlar bilan qo‘shib hisoblanganda 1 l moy tannarxi 120000 so‘mni tashkil etdi. 40000 l yong‘oq moyini har bir litrini 120000 so‘mga sotilganda 4 mlrd 800 mln so‘mni tashkil etishi kuzatildi (2-jadval). Yong‘oq kunjarasini sotilgandagi summa 400 mln bo‘lgan bo‘lsa, jami sotishdan kelgan summa 5 mlrd 200 mln so‘mni tashkil etishi kuzatildi.

Хулоса. Yong‘oq mag‘zi yog‘i inson organizmiga ijobiy ta’siri bilan qadimdan ma’lum bo‘lgan. Nozik ta’mga va yoqimli yong‘oq hidiga ega bo‘lib, u oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, boy kompozitsion yong‘oq yog‘ini vitaminlar, minerallar va ko‘p to‘yinmagan yog‘li kislotalar manbai sifatida ishlatishga imkon beradi [5]. Yong‘oq moyi ishlab chiqarishda 1 l moyning tannarxi 120000 so‘m bo‘lsa, keladigan umumiy foyda 5 mlrd 200 mln so‘mni tashkil etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yong‘oq ishlab chiqaruvchilar va eksport qiluvchilar uyushmasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 01.06.2017 yildagi PQ-3025-sonli qarori

2. Ostanaqulov T.E. va boshqalar. Mevachilik va sabzavotchilik (mevachilik). Darslik, T.: “Navro‘z”, 2019.-B.308-317.

4. Sunnatillayeva M.Q., Ishmuxamedova R.Ch. Yunon yon-o-i yetishtirishning dunyo tajribalari. “O‘zbekistonning innovatsion taraqqiyotida yoshlarning o‘rni” mavzusidagi yosh olimlar va iqtidorli talabalarning respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. 2023 yil 15-16 may. 155-157 betlar.

4. https://srcyrl.haozehealth.com/info/the-benefits-of-walnut-oil-for-children-80509904.html

5. https://altay-organic.ru/blog/poleznoe/maslo-gretskogo-orekha-top-7-poleznykh-svoystvsily/